

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi


1. Quyidagilardan qaysi biri O'zbekistonning eng janubida joylashgan tog' hisoblanadi?

- A) Oqtog' B) Qurama C) Zarafshon D) Bobotog'

2. Italiyada shahar aholisining ulushi qancha?

- A) 91 % B) 57 % C) 85 % D) 70 %

3. Rasmda "k" harfi bilan daryo vodiysining qaysi elementi ko'rsatilgan?



- A) estuariy B) irmoqlar
C) suvayirg'ich D) daryo manbai

4. Sovetskoye platosi quyidagi qaysi geografik obyektga eng yaqin joylashgan?

- A) Shimoliy qutbga B) Verxoyansk tizmasiga
C) Erebus vulqoniga D) Pantanal botqoqligiga

5. Qorako'l qo'ylari Mirzacho'l iqtisodiy rayonining qaysi qismida boqiladi?

- A) Sharqida B) Shimoli-g'arbida C) Markazi va janubida D) Janubida

6. Quyidagi qaysi davlat iqtisodiyoti eng qoloq agrar mamlakatlardan biri hisoblanadi?

- A) Vyetnam B) Bangladesh C) Shri Lanka D) Laos

7. Quyidagi qaysi IES yiliga 13 mlrd kW · h elektr energiya beradi?

- A) Navoiy IES B) Sirdaryo IES C) Talimarjon IES D) Farg'ona IES

8. Quyidagi qaysi shahar nisbatan shimolroqda joylashgan?


- A) Koson B) Kogon C) Kattaqo'rg'on D) Samarqand

9. Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi korxonasi respublikamizning qaysi shahrida joylashgan?

- A) Chirchiq B) Samarqand C) Qorovulbozor D) Andijon

10. Quyidagi xarita-sxemada 4 raqami bilan qaysi dengiz ko'rsatilgan?





A) Liguriy


B) Adriatika

C) Tirren

D) Ioniya

2-qism: Har bir topshiriq 1.5 balldan baholanadi

11. Quyidagi rasmda Mariana va Kermadek cho'kmalari qaysi raqamlar bilan ko'rsatilgan?



A) 4 va 7

B) 3 va 6

C) 1 va 2

D) 4 va 6

12. Abiskun dengizi qaysi materikda joylashgan suv havzasining qadimgi nomi hisoblanadi?

A) Afrika

B) Shimoliy Amerika

C) Yevrosiyo

D) Avstraliya

13. Yevropadagi kichik rivojlangan mamlakatlar qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Belgiya, Avstriya, Shvetsiya

B) Lyuksemburg, Belgiya, Italiya

C) Polsha, Norvegiya, Daniya

D) Shveysariya, Serbiya, Niderlandiya



14. Quyidagi milliy bog'lardan qaysilari Shimoliy Amerikada joylashgan? 1. Jasper; 2. Yosemite; 3. Manu; 4. Sekvoyya; 5. Parakas; 6. Vud-Buffalo.

- A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 4, 5, 6 C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 2, 4, 6

15. Quyidagi qaysi geografik obyekt Past Afrikada joylashgan emas?

- A) Tubkal tog'i B) Darfur platosi C) Kattara botig'i D) Assal ko'li

16. Quyidagi qaysi shaharlarda paxta tozalash hamda yog' sanoati uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi zavodlar joylashgan?

- A) Toshkent, Qo'qon, Jizzax, Namangan B) Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz
C) Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Andijon D) Toshkent, Andijon, Samarqand, Kattaqo'rg'on

17. Jeneva ko'li vujudga kelishiga ko'ra qanday ko'llar guruhiga mansub?

- A) Tektonik B) To'g'onli C) Morena D) Laguna


18. Quyidagi qaysi mamlakat ichimlik suvini Malayziyadan import qiladi?

- A) Indoneziya B) Singapur C) Vyetnam D) Xitoy

19. Grenlandiya va Islandiya orollari orasidagi bo'g'iz nomini belgilang.

- A) Deyvis B) Lankaster C) Daniya D) Mak-Klintek

20. Qishda Murmansk portining muzlamasligiga sabab bo'luvchi oqimlar quyidagi xarita-sxemada qaysi sonlar bilan ko'rsatilgan?



- A) 9, 10, 12 B) 1, 2, 4 C) 16, 17, 19 D) 9, 8, 7

3-gism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Termometr tog' cho'qqisida havo harorati -10°C , xuddi shu paytda uning dengiz bo'yida joylashgan etagida havo harorati $+14^{\circ}\text{C}$ ga teng ekanligini ko'rsatdi. Tog'ning mutlaq balandligini aniqlang.


- A) 3000 m B) 3500 m C) 4000 m D) 4500 m

22. O'rta okean tizmalarining uzunligidan 150 marta qisqa masofa necha gradus meridian yoyining uzunligiga teng?

- A) $4,2^{\circ}$ B) $3,6^{\circ}$ C) $3,1^{\circ}$ D) $2,8^{\circ}$




23. Terrigen yotqiziqalar ko'p to'planadigan joylar rasmda qaysi harflar bilan belgilangan?



- A) D, A B) F, B C) G, F D) J, B

24. Quyidagi qaysi orol vujudga kelishiga ko'ra rasmda tasvirlangan tipga xos emas?




- A) Gavayi B) Pasxa C) Mariana D) Tasmaniya

25. 10°–20° janubiy kengliklar oralig'ida joylashgan poytaxt shaharlarni aniqlang.

- A) Vindxuk, Jakarta, Lilongve, Kito, Singapur B) Antananarivu, Lima, Lusaka, Braziliya, Xarare
C) La-Pas, Asunson, Santyago, Maputu, Kigali D) Luanda, Dili, Montevideo, Lusaka, Maseru

26. Ptolemey tuzgan "Dunyo xaritasi"da 5 va 6 raqamlari bilan qaysi daryolar ko'rsatilgan?




- A) Ra va Istr B) Gang va Nil C) Oks va Yaksart D) Hind va Nil

27. Sulina shahri 45° shimoliy kenglik, 29° sharqiy uzoqlikda joylashgan. Shahardan Janubiy qutbgacha bo'lgan masofani kilometr hisobida aniqlang.


- A) 4 999,5 B) 14 998,5 km C) 9 999 km D) 1 914,5 km

28. Quyidagi rasmda nima tasvirlangan?



- A) Iliq front B) Geotermik o'choq C) Termik depressiya D) Sovuq front

29. Rasmda ko'rsatilgan A nuqtaning mutlaq balandligi 400 m, u yerdagi havo bosimi 730 mm Hg. B nuqtadagi havo bosimini aniqlang.



- A) 610 mm Hg B) 550 mm Hg C) 600 mm Hg D) 580 mm Hg

30. Hind okeani suvining o'rtacha sho'rliigi 36,5 %. Okeandan olingan 4,5 tonna suvdan qancha tuz olish mumkin?

- A) 16,425 kg B) 164,25 kg C) 164 250 kg D) 16,425 t



**O'quvchilar tayyorgarlik ko'rishlari uchun o'tgan yilgi savollar
keltirilmoqda.**

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Fan olimpiadalari bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash departamenti tomonidan tuman bosqichi uchun nazorat materiallari shakllantirildi.

Telegram kanalimiga obuna bo'ling! 

<https://t.me/ustoz>

